

THE CONCEPT OF TOLERANCE AND ITS LINGUISTIC ESSENCE

Nizomiddin Shakarboyevich LAPASOV

Deputy Dean

1st Faculty of English

Uzbekistan State World Languages University

Tashkent, Uzbekistan

TOLERANTLIK TUSHUNCHASI VA UNING LINGVISTIK MOHIYATI

Nizomiddin Shakarboyevich LAPASOV

Dekan muovini

Ingliz tili 1-fakulteti

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Toshkent, O'zbekiston

ПОНЯТИЕ ТОЛЕРАНТНОСТИ И ЕЕ ЛИНГВИСТИЧЕСКАЯ СУЩНОСТЬ

Низомиддин Шакарбоевич ЛАПАСОВ

Заместитель декана

1-й факультет английского языка

Узбекский государственный университет мировых языков

Ташкент, Узбекистан lapasov nizomiddin@gmail.com ORCID: 0009-0001-8323-531X

For citation (iqtibos keltirish uchun, для цитирования):

Lapasov N.Sh. The Concept of Tolerance and its Linguistic Essence // O'zbekistonda xorijiy tillar. — 2025. — 11-jild, № 2. — B. 35-48.

<https://doi.org/10.36078/1746085042>

Received: February 24, 2025

Accepted: April 17, 2025

Published: April 20, 2025

Copyright © 2025 by author(s).

This work is licensed under the Creative Commons Attribution International License (CC BY 4.0).

<http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>



Abstract. This article examines the linguistic analysis of the concept of tolerance, which is significant in that it includes categories related to the expression of moral norms and values, and is considered from the perspective of semantic, pragmatic and discourse analysis. In literature, the concept of tolerance is described as a result of linguistic and communicative competence, the concept of tolerance is described as a result of language and communicative competence, which is associated with the emotional stability of the individual and is implemented through linguistic means that form harmonious emotional interaction. At the same time, in the linguistic sense, the categories of tolerance combine both universal and specific cultural features. Also, in various religious texts, the concept of tolerance is significant in that it plays an important role in combining specific cultural features, reflecting tolerance, mutual respect, and the peaceful coexistence of people in social life. Thus, tolerance is realized linguistically through a system of lexical, grammatical and pragmatic means that form a special semantic field. In this regard, in different languages and cultures, the concept of tolerance, while retaining its universal meaning (acceptance of differences, respect for others), acquires its own national-cultural connotations, which is reflected both in its semantic structure and in the characteristics of its expression in the language.

Keywords: Tolerance; linguistics; empathy; communicative; intercultural; emotional; psycholinguistic; obedience; endurance.

Annotatsiya. Maqolada tolerantlik tushunchasining lingvistik tahlili axloqiy me'yorlar va qadriyatlarni ifodalash bilan bog'liq kategoriyalarni o'z ichiga olishi bilan ahamiyatli ekanligi hamda

semantik, pragmatik va diskurs tahlili asosida ko'rib chiqiladi. Adabiyotlarda tolerantlik tushunchasi til va kommunikativ kompetensiyaning natijasi sifatida tavsiflanib, shaxsning emotsional barqarorligi bilan bog'liq va uyg'un emotsional o'zaro ta'sirni shakllantiruvchi til vositalari orqali amalga oshiriladi. Shu bilan bir qatorda, lingvistik ma'noda, tolerantlik kategoriyalari ham universal, ham o'ziga xos madaniy xususiyatlarni birlashtiradi. Shuningdek, turli diniy matnlarda tolerantlik tushunchasi bag'rikenglik, o'zaro hurmat, insonlarning ijtimoiy hayotda tinch-totuv yashashini aks ettirib, o'ziga xos madaniy xususiyatlarni birlashtirishda muhim ro'l o'ynashi bilan ahamiyatlidir. Shunday qilib, tolerantlik lingvistik jihatdan maxsus semantik maydonni shakllantiruvchi leksik, grammatik va pragmatik vositalar tizimi orqali voqelanadi. Bunda turli tillar va madaniyatlarda tolerantlik konsepti o'zining universal mag'zini (tafovutlarni qabul qilish, boshqalarga hurmat) saqlagan holda, o'ziga xos milliy-madaniy konnotatsiyalarni kasb etadi, bu uning ham semantik tuzilishida, ham tilda ifodalanish xususiyatlarida namoyon bo'ladi.

Kalit so'zlar: tolerantlik; lingvistika; empatiya; kommunikativ; madaniyatlararo; emotsional; psixolingvistik; itoat; chidam.

Аннотация. В статье рассматривается понятие «толерантность», которое включает в себя категории, связанные с выражением моральных норм и ценностей с точки зрения семантического, прагматического и дискурсивного анализа. В литературе понятие толерантности описывается как результат языковой и коммуникативной компетентности, связано с эмоциональной устойчивостью личности и реализуется посредством языковых средств, формирующих гармоничное эмоциональное взаимодействие. В то же время в языковом смысле категории толерантности объединяют как универсальные, так и специфические культурные характеристики. Также в различных религиозных текстах понятие толерантности значимо тем, что оно играет важную роль в объединении специфических культурных характеристик, отражая толерантность, взаимное уважение и мирное сосуществование людей в общественной жизни. Таким образом, толерантность реализуется через систему лексических, грамматических и прагматических средств, которые в языковом плане образуют определенное семантическое поле. В связи с этим в разных языках и культурах понятие толерантности, сохраняя свое универсальное значение (принятие различий, уважение к другим), приобретает собственные национально-культурные коннотации, что отражается как в его семантической структуре, так и в особенностях его выражения в языке.

Ключевые слова: толерантность; лингвистика; эмпатия; коммуникативная; межкультурная; эмоциональная; психолингвистическая; послушание; выносливость.

Kirish

Tolerantlik tushunchasi tilshunoslikda o'ziga xos o'rin tutib, tilning madaniy-semantik tabiatini aks ettiradi. Bu konsept dunyoning til manzarasida markaziy elementlardan biri bo'lib, turli lingvistik vositalar orqali namoyon bo'luvchi universal qadriyat sifatida tadqiq etiladi. Ilmiy nuqtayi nazardan, har bir til va madaniyatda tolerantlik tushunchasi o'ziga xos semantik qirralarga ega.

Ma'lumotlarga ko'ra, ingliz tilida bu tushuncha "toqatlilik, sabr va chidamlilik" ma'nolarini ifodalasa, ispan tilida "fikir va g'oyalarning eng yaxshisini tan olish", xitoy tilida "boshqalarga nisbatan kelishuvchan bo'lish", arab tilida esa "rahmdillilik, sabr-toqatlilik" kabi ma'no nozikliklarini aks ettiradi. O'zbek tilidagi tolerantlik tushunchasi alohida ahamiyatga ega bo'lib, u bag'rikenglik, kechirimlilik, o'zaro samimiyat, himmat va muruvvat hamda axloqiy me'yorlarni kompleks tarzda qamrab oladi.

Lingvistik tadqiqotlar doirasida tolerantlik konsepti "qabul qilish", "hurmat", "tushunish" kabi leksik birliklar tizimi orqali realizatsiyalanadi. Shuningdek, tolerantlikni ifodalash uchun qo'llaniladigan til vositalari muayyan jamiyatning etnolingvistik va madaniy xususiyatlariga ko'ra variatsiyalanadi.

Ilmiy yondashuvlar asosida tolerantlik axloqiy me'yorlar va qadriyatlar sistemasini aks ettiruvchi kategoriya sifatida semantika, pragmatika va diskurs tahlili metodologiyasi doirasida o'rganiladi. Shu bilan birga, bu tushuncha psixologiya, siyosatshunoslik, etika, falsafa, tibbiyot va dinshunoslik kabi fanlarning turli sohalarida o'ziga xos interpretatsiyalarga ega. Ammo mohiyatan tolerantlik barcha jamiyat va fuqarolarning ma'naviy, huquqiy va siyosiy madaniyatining ajralmas qismi sifatida qaralishi mumkin.

Asosiy qism

Ilmiy tadqiqotlar natijalarini umumlashtirish asosida T. V. Petkova, Jon Lokk va Immanuel Kantning falsafiy qarashlarida tolerantlikning siyosiy-falsafiy jihatlari muhim o'rin tutishini alohida ta'kidlaydi. Binobarin, Lokkni davlat va din munosabatlarini aniq chegaralash tarafdori sifatida ko'rsatib, bu yondashuvni fuqarolik manfaatlar va shaxsning e'tiqod erkinligini ta'minlashning asosiy sharti deb biladi [Petkova 2019: 19]. Boshqa tomondan, T. V. Petkova Kantning "abadiy tinchlik" nazariyasini davlatlararo munosabatlarni tartibga solishning axloqiy-huquqiy negizi sifatida talqin qiladi [Petkova 2019: 22].

T. V. Petkova nuqtayi nazaridan, tolerantlik tushunchasi plyuralizm, kelishuv, erkinlik va tenglik kabi munosabatlar tizimining markaziy komponentlari bilan chambarchas bog'liqdir. Shubhasiz, tolerantlikning asosiy mohiyati "boshqa" va "o'zgacha" bilan munosabatlar o'rnatishning samarali yo'llarini topishga intilish bo'lib, bu jarayonda qarama-qarshiliklardan ko'ra, tushunish va moslashish tamoyillari ustuvor ahamiyat kasb etadi. Qolaversa, olimaning tarixiy tahlili asosida bu tushunchaning milliy va xalqaro darajadagi ijtimoiy o'zaro munosabatlarni shakllantirishdagi strategik ahamiyati yaqqol namoyon bo'ladi. Demak, tolerantlik nafaqat axloqiy-etik platforma, balki ijtimoiy tuzilmalarni shakllantiruvchi va madaniy rivojlanishga ta'sir ko'rsatuvchi kognitiv ahamiyatga ega omil sifatida ham qaralishi lozim.

M. P. Axidjakova va L. A. Donskova olib borgan tadqiqotlarda kommunikativ tolerantlik masalasi nutq faoliyatining emotsional-psixologik jihatlari kontekstida ko'rib chiqiladi. Ilmiy asoslarga ko'ra, tolerantlik til kompetensiyasining natijasi sifatida talqin qilinib, unda

emotivlik va hamkorlikdagi o'zaro ta'sir aktuallashadi [Ахиджакова, Донскова 2021: 69]. Zamonaviy tilshunoslik nuqtayi nazaridan, kommunikativ tolerantlik shaxsiy emotsional barqarorlikka asoslanib, muloqot jarayonida uyg'un emotsional munosabatlarni shakllantiruvchi til vositalari orqali samarali tarzda realizatsiya qilinadi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, lingvistik tahlil doirasida, tilning emotsional komponenti shaxsiy ma'nolarni verbalizatsiya qiluvchi emotiv markerlar tizimi orqali belgilanadi. Binobarin, bu tolerantlik tushunchasining emotsional ifoda vositalari hamda til tizimining funksional jihatlariga uzviy bog'liqligini ilmiy asosda tasdiqlaydi.

Pragmatik tahlil metodologiyasi asosida badiiy matnlarda kommunikativ tolerantlikni o'rganish alohida metodologik ahamiyatga ega jarayondir. M. P. Axidjakova va L. A. Donskova tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar natijasida tolerant va intolerant muloqotni ifodalovchi leksik-sintaktik markerlar aniqlangan bo'lib, ular kommunikativ tolerantlikni nafaqat ijtimoiy o'zaro ta'sir mexanizmi, balki madaniy shartlanganlikka ega diskurs kategoriyasi sifatida ham konseptuallashtirishga imkon beradi, bu esa mazkur hodisani lingvokulturologik tadqiqotlar doirasiga kiritishni taqozo etadi [Ахиджакова, Донскова 2021: 71].

Lingvistik aspektdan qaralganda, tolerantlik "o'zgachalik"ni qabul qilishning kognitiv komponentini, shuningdek, emotsional-xulqiy mexanizmlarini ham o'z ichiga olgan murakkab tushunchadir.

A. V. Korneyeva madaniyatlararo muloqotda kommunikativ xulq-atvor va kommunikativ ongning funksional rolini tekshirib, bag'rikenglikni shaxs madaniyatining fundamental elementi sifatida tushuntirar ekan, uni madaniy va kommunikativ normalarni to'g'ri idrok etish bilan bog'laydi. Uning tadqiqotlarida "kommunikativ ong" kategoriyasi bag'rikenglikni samarali muloqotning integral qismi sifatida tushunishga metodologik zamin yaratadi, shu orqali shaxsning boshqa etnik guruhlar me'yorlari va an'alaridagi tafovutlarga moslashish qobiliyati yanada aniqroq izohlanadi [Корнеева 2017: 79]. Demak, tilshunoslik nuqtayi nazaridan, bag'rikenglik til vositalari orqali aks ettiriladigan madaniy xilma-xilliklarni kognitiv muvofiqlashtirish mexanizmi deb ta'riflanishi mumkin.

Zamonaviy tilshunoslikda bag'rikenglikni kommunikativ ongning madaniyatlararo tajriba bilan o'zaro ta'siri orqali hosil bo'ladigan kategoriya sifatida o'rganish zaruratini olimlar alohida ta'kidlaydi. Hozirgi ilmiy tadqiqotlar bag'rikenglikka, chet tillarni o'zlashtirish va boshqa madaniyatlarni o'rganish jarayonida shakllanadigan kognitiv adaptatsiya sifatida yondashmoqda, buning natijasida zamonaviy lingvistik izlanishlar tobora ko'proq ta'lim va madaniyatlararo kommunikatsiya orqali bag'rikenglikni rivojlantirish mexanizmlarini o'rganishga yo'naltirilmoqda [Корнеева 2017: 82].

L. I. Chernov ilmiy ishlarida tolerantlik masalasi madaniyatlararo savodxonlikning integrativ tushunchasi kontekstida tahlil qilinib, uning shaxsiy-aksiologik jihatlarini alohida e'tibor bilan o'rganiladi. Tadqiqotchi tolerantlikni madaniyatlararo o'zaro munosabatlar samarali kechishining zaruriy sharti va shaxsning muhim xususiyati sifatida belgilaydi. Uning xulosalariga ko'ra, bu xususiyat empatiya, boshqa madaniy kontekstlarga

nisbatan baholovchi yoki prejuditsial munosabatlardan xoli bo'lish qobiliyati hamda turli qarash va nuqtayi nazarlarga nisbatan hurmat tamoyillari bilan uyg'unlashadi. Muallif ta'kidlaganidek, tolerantlik madaniyatlararo savodxonlikning kognitiv va pragmatik tarkibiy qismlarining o'zaro aloqasi natijasida shakllanuvchi fenomendir [Чернов 2020: 65].

L. I. Chernov zamonaviy tilshunoslikda tolerantlik konsepsiyasini o'rganishning ustuvor tendensiyasi sifatida uning ta'lim va kommunikativ modellar bilan integratsiyasini ta'kidlaydi. Olimning ta'kidlashicha, tolerantlik boshqa madaniyat vakillari bilan o'zaro aloqalarga shaxsni tayyorlashning strategik komponenti vazifasini bajaradi. U hozirgi lingvistikada tolerantlikni o'rganishning uch asosiy yo'nalishini ajratib ko'rsatadi: avvalo, madaniy farqlarni kognitiv anglash, qolaversa, real kommunikativ vaziyatlarda ularni pragmatik interpretatsiya qilish, va, nihoyat, tegishli pedagogik modellarni loyihalash [Чернов 2020: 67].

Ilmiy adabiyotlarda keltirilgan ma'lumotlarga asosan, G. I. Marinina tolerantlikning leksik-semantik maydonga asoslangan murakkab konseptual tuzilishga egaligini ta'kidlaydi. Turli tillarda o'tkazilgan tadqiqotlarga ko'ra, tolerantlik konseptining asosida bag'rikenglik g'oyasi yotsa-da, semantik interpretatsiyalar til madaniyati xususiyatlariga mos ravishda farqlanadi. Masalan, rus tilida markaziy semani "bag'rikenglik" tashkil etsa, ingliz tilida — "ruxsat berish", nemis tilida — "boshqalar fikriga hurmat", qabardin-cherkes tilida esa "nizosizlik" semalar ustuvorlik qiladi [Маринина 2016: 130]. G. I. Marinina zamonaviy tolerantlik tadqiqotlari, asosan, qiyosiy semantik maydonlarni lingvistik tahlil qilishga va madaniyatlararo hamda etnopsixologik jihatlarni o'rganishga yo'naltirilganligini qayd etadi. Chunonchi, uning ma'lumotlariga ko'ra, turli tillardagi tolerantlik konsepti madaniy ustuvorliklar tizimini aks ettiradi: nemis lingvomadaniyatida "insoniylik" (Menschlichkeit) va "rahm-shafqat" (Mitleid) kategoriyalari alohida ahamiyat kasb etsa, ingliz madaniyatida "kechirimlilik" (humility) va "empatiya" (empathy) tushunchalari markaziy o'rinni egallaydi [Маринина 2016: 130].

Shunday qilib, lingvistik talqinda tolerantlik ham universal, ham milliy-madaniy spetsifikaga ega bo'lgan murakkab kategoriya sifatida namoyon bo'ladi.

L. A. Donskova, Kh. Z. Bagirokov tadqiqotlarida tolerantlik madaniyatlararo muloqot jarayonida til shaxsining psixolingvistik xususiyatlari orqali o'rganiladi. Ilmiy yondashuv asosida tolerantlik kognitiv, emotsional va xulq-atvor komponentlarini o'z ichiga olgan murakkab integrativ xususiyat sifatida talqin etiladi. Shuningdek, bu konseptning psixolingvistik asosi individning turli kommunikativ me'yorlarni qabul qilish va adaptatsiyalash qobiliyatiga bog'liq ekanligi aniqlangan [Донскова, Багирокков 2017]. Mazkur ta'rif tolerantlikning til ijtimoiylashuvi mexanizmlari bilan bog'liqligini ko'rsatib, bu jarayon uzr so'rash, rozilik bildirish, maqtash kabi garmonik o'zaro aloqaga yo'naltirilgan nutq aktlarida realizatsiyalanishini ta'kidlaydi.

L. A. Donskova, Kh. Z. Bagirokov zamonaviy lingvistik tadqiqotlarda tolerantlik masalasini o'rganishning asosiy yo'nalishlarini

tizimlashtirgan holda, uning globallashtirgan jamiyat sharoitidagi rolini alohida e'tiborga oladi. Olimaning qarashlariga ko'ra, tolerantlik nafaqat til shaxsining xususiyati, balki madaniyatlararo kommunikatsiyaning fundamental sharti sifatida ham muhim ahamiyatga ega bo'lgan tushunchadir [Донскова, Багиркоков 2017].

Ilmiy izlanishlarning zamonaviy tendensiyalaridan biri sifatida turli diskurs janrlarda tolerantlik til markerlarini aniqlash uchun korpus tadqiqot metodlarining keng qo'llanilishi belgilanmoqda. Bundan tashqari, milliy-madaniy kontekstda tolerantlikning semantik maydonlarini tadqiq etish ham dolzarb masalaga aylanmoqda.

A. I. Xlopova nemis lingvomadaniyatidagi tolerantlik konseptini o'rganib, uni leksik-semantik va assotsiativ xususiyatlar bilan aniqlanadigan lingvomadaniy hodisa sifatida tavsiflaydi. Tarixiy-etimologik tahlil asosida nemis tilidagi "Toleranz" terminining lotincha tolerantia ("sabr, chidam") so'zidan kelib chiqqanligi va uzoq tarixiy evolyutsiya jarayonini bosib o'tganligi aniqlangan [Хлопова 2023: 58].

Olimaning ta'kidlashicha, zamonaviy nemis tilida bu atamaning semantik strukturasi "chidamlilik"dan "boshqalar fikrlariga hurmat" gacha bo'lgan keng ma'nolar spektrini qamrab olgan bo'lib, bu konseptning evolyutsiyasi jamiyatning madaniy taraqqiyoti bilan bevosita bog'liq holda, tolerantlik tushunchasining mazmuniy boyishini aks ettiradi [Хлопова 2023: 59].

A. I. Xlopovaning ilmiy xulosalariga ko'ra, tolerantlik konseptining zamonaviy tadqiqotlari, asosan, uning assotsiativ maydoni va ijtimoiy funksiyalarini tahlil qilishga yo'naltirilgan. Olima o'z izlanishlarida erkin assotsiativ tajriba natijalarini taqdim etib, ularga ko'ra, tolerantlik respondentlar tomonidan muhim, biroq bir vaqtning o'zida sun'iy va ikki tomonlama xususiyatga ega kategoriya sifatida qabul qilinishini aniqlagan. Masalan, dominant assotsiatsiyalar qatorida "hurmat" (Respekt), "qabul qilish" (Akzeptanz), "ochiqlik" (Offenheit) kabi so'zlar markaziy o'rin egallagan. Ammo assotsiativ maydonning sezilarli qismi tolerantlikni majburiy norma sifatida tanqidiy tarzda aks ettiradi [Хлопова 2023: 61].

"Key Concepts in Interreligious Discourses" nomli hujjatda tolerantlik tushunchasi uch jahon dini — yahudiylilik, xristianlik va islom prizmasi asosida tadqiq qilinadi. Tahlil natijalariga ko'ra, yahudiylilik kontekstida tolerantlik konsepti tarixan ko'p asrlik kamsitilish va ijtimoiy strukturalardan chetlatish tajribasiga moslashish zaruriati bilan bog'liq ekanligini ko'rsatadi. Ayniqsa, ilk ravvin yahudiyligida bag'rikenglik g'oyasining ahamiyati alohida ta'kidlanib, unda diniy farqlarni tan olish bilan birga, umumaxloqiy me'yorlar nuqtayi nazaridan baholash tamoyili ustuvor ahamiyat kasb etadi [Tamer 2017: 2-3].

Xristianlik an'anasida tolerantlik konseptining interpretatsiyasi e'tiqod ko'rsatkichlaridan qat'i nazar, yaqin kishilarga bo'lgan muhabbat, axloqiy majburiyati bilan bog'liq fazilat sifatida tushuniladi. Tarixiy jihatdan qaraganda, xristian madaniyatida tolerantlik konfessional mojarolarni tartibga solish zaruriatidan ijtimoiy tinchlik va barqarorlikni ta'minlovchi universal qadriyatga qadar evolyutsiya yo'lini bosib o'tgan [Tamer 2017: 3-4]. Islom ta'limoti esa tolerantlikni o'zaro hurmat va bag'rikenglikni o'z ichiga olgan tasomuh tushunchasi orqali talqin qiladi.

Islom an'anasida ahli kitobning huquqlarini e'tirof etish va himoya qilish alohida mavqega ega bo'lib, bu o'rta asr musulmon davlatlarida institutsionallashtirilgan tolerantlikning amaliy shaklini ifodalaydi [Tamer 2017: 4–5].

Shu tariqa, tolerantlikning turli ijtimoiy va diniy guruhlar o'rtasidagi ziddiyatlarni bartaraf etishdagi amaliy ahamiyati beqiyosdir. Xristianlik ta'limotida tolerantlik nizolarni vaqtinchalik hal qilishni ta'minlovchi axloqiy murosa sifatida tushunilsa-da, uning pirovard maqsadi o'zaro tan olish va hurmat munosabatlarini shakllantirish hisoblanadi [Tamer 2017: 7]. Islom kontekstida tolerantlik masalasi tarixiy tajriba prizmasida o'rganilib, musulmon davlatlarida turli konfessiya vakillarining tinch-totuv yashash an'analari misolida tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, tasomuh termini g'arbiy "tolerance" tushunchasiga to'liq semantik ekvivalent emas, chunki u tolerantlik konseptini tushunishdagi madaniy farqlarni aks ettiruvchi o'zaro munosabatlar aspektini o'z ichiga oladi [Tamer 2017: 8].

G. P. Sinkevich tolerantlikni zamonaviy jamiyatda markaziy ahamiyatga ega axloqiy ta'limot sifatida tavsiflaydi. Olimaning fikricha, tolerantlik madaniy qadriyatlar, milliy til xususiyatlari va farqlarga hurmat munosabatini rivojlantirish strategiyalari orqali shakllantiriladi. U tolerantlikning shaxs ijtimoiylashuvi jarayonida rivojlanishini e'tirof etib, bu xususiyatning empatiya, mas'uliyat, sabr-toqat va o'zini-o'zi qadrlash kabi shaxs xislatlari bilan organik bog'liqligini alohida ta'kidlaydi [Синькевич 2014: 263]. Tilshunos olim, shuningdek, tilning madaniyatlararo muloqotdagi mediator funksiyasini qayd etib, ayniqsa, 100 dan ortiq millat vakillari yashaydigan Krasnodar o'lkasi kabi ko'pmadaniyatli hududlarda bu xususiyatning ahamiyati benihoya muhimligini ko'rsatadi [Синькевич 2014: 264].

X. X. Kurbonova ilmiy ishlarida tolerantlikni hayotiy qiyinchiliklarni yengishda sabrlik va matonatni ifoda etuvchi muhim konsept sifatida tavsiflaydi. Etimologik tahlil asosida olim tojik tilidagi "Sabr" atamasining arab tilidagi "sabr" leksemasidan kelib chiqqanligini aniqlagan va u "sabr", "chidam" hamda "matonat" kabi semantik komponentlarni o'z ichiga olishini ta'kidlaydi [Курбонова 2021: 3]. Uning tadqiqotlariga ko'ra, mazkur konseptning semantik tuzilishi turli lingvomadaniyatlarda farqlanadi. Jumladan, tojik an'anasida "Sabr" axloqiy barqarorlik, diniy bo'ysunish va donishmandlik bilan bog'langan bo'lib, bu etnos madaniy xususiyatlari va qadriyatlar tizimini aks ettiradi.

X. X. Kurbonova olib borgan ilmiy izlanishlar tojik va rus tillarida tolerantlik nafaqat leksik jihatdan farq qilishini, balki etnik madaniyat bilan bog'liq spetsifik qadriyatli komponentlarni ham o'z ichiga olishini isbotlaydi. Uning qo'llagan leksikografik va kognitiv tahlil metodologiyasi tojik va rus informantlari orasida sabr konseptini tushunishdagi farqlarni aniqlashga imkon beradi [Курбонова 2021: 7]. Olimaning xulosalariga ko'ra, tojik tilida sabr konsepti, asosan, diniy e'tiqodlar bilan uzviy bog'liq bo'lsa, rus madaniyatida u ko'proq ijtimoiy bosim, iqtisodiy qiyinchiliklar va hayotiy to'siqlarni yengish zaruriyati bilan konnotatsiyalangan [Курбонова 2021: 10]. Tadqiqotchi xulosalariga ko'ra, bu farqlar tolerantlik konseptining ijtimoiy-madaniy omillar ta'sirida dinamik

o'zgarishga uchrashini ko'rsatadi, ayniqsa, ko'pmadaniyatli hududlarda bu hodisa yaqqolroq namoyon bo'ladi.

O. V. Marunovich tadqiqotida "xorijlik" konsepti lingvokognitiv fenomen sifatida tadqiq etilib, u "o'ziniki — begona" binar oppozitsiyasi asosida tashkil topishi ko'rsatilgan. Muallif ta'kidlaganidek, mazkur bipolyar struktura turli madaniyatlarda etnik o'zgachalikni qabul qilish jarayonlarini belgilaydi. Uning tadqiqoti "xorijlik" konseptining dinamik xarakterini ochib beradi — u madaniy, tarixiy va ijtimoiy faktorlar ta'sirida doimiy o'zgarishga moyil. Ilmiy dalillarga ko'ra, rus tilida "xorijlik" konsepti "begona" va "o'zga yurtlik" tushunchalari bilan uzviy bog'liq bo'lib, bu uning milliy identifikatsiyaga nisbatan "o'zgachaligini" alohida ta'kidlaydi [Маруневич 2009: 3].

Olima konseptning semantik tuzilishini uch darajali tizim sifatida izohlaydi: konseptual, obrazli va aksiologik. Konseptual daraja xorijlikning davlat yoki etnik mansubligi kabi fundamental atributlarini aks ettiradi. Obrazli komponent perseptiv stereotiplarni shakllantirishga xizmat qilsa, aksiologik daraja esa pozitiv va negativ emotsional baho spektrini o'z ichiga oladi [Маруневич 2009: 5]. Ushbu metodologik yondashuv tolerantlikning xorijlik konseptini idrok etishdagi markaziy aspekt sifatida jamiyatning kognitiv bazisi bilan chambarchas bog'liqligini isbotlaydi.

O. V. Marunovich tomonidan taklif qilingan zamonaviy tadqiqot metodologiyasi tolerantlikni turli lingvomadaniyatlarda namoyon bo'lishini qiyosiy tahlil qilishga ustuvor ahamiyat beradi. Olimaning tadqiqot natijalariga ko'ra, rus tilida tolerantlik sinonimik birliklar sistemasi orqali ifodalanadi ("xorijlik", "o'zga yurtlik", "begona"), ingliz tilida esa yuridik konnotatsiyalarga ega bo'lgan "alien" va "foreigner" terminlari dominant mavqeni egallaydi [Маруневич 2009: 7].

Tadqiqotchi, bundan tashqari, tolerantlik konseptining globallashuv kontekstida alohida aktuallik kasb etishini ta'kidlaydi. Bu xorijliklarga munosabatni aks ettiruvchi til markerlarini kompleks o'rganishni taqozo etadi. Xususan, "resident alien" va "guest worker" kabi siyosiy to'g'ri terminlarni qo'llash negativ assotsiatsiyalarni yumshatishga qaratilgan harakatlarni namoyon etadi. Shu bilan birga, sleng va kamsituvchi ifodalarning mavjudligi kontrast tendensiyalarni ko'rsatadi, bu esa jamiyatning ambivalent qabul qilishini aks ettiradi [Маруневич 2009: 12].

V. V. Panin tadqiqotlarida tolerantlikni siyosiy to'g'rilik bilan uzviy bog'liq hodisa sifatida tahlil qilib, uning interpersonal va madaniyatlararo munosabatlarni qamrab oluvchi keng qamrovli tushuncha ekanligini, siyosiy to'g'rilik esa uning til va madaniy-xulqiy jihatdagi spetsifik realizatsiyasi ekanligini ta'kidlaydi. Olimning fikricha, agar tolerantlik turli fikrlar, qadriyatlar va xulq-atvor shakllariga nisbatan bag'rikenglikni ifodalasa, siyosiy to'g'rilik bu prinsiplarni til va kommunikativ jarayonlar orqali amaliyotga tatbiq etishga yo'naltirilgan mexanizm sifatida namoyon bo'ladi [Панин 2004: 11].

Tadqiqotning metodologik ahamiyati shundaki, tolerantlik "o'ziniki-begona" kategorizatsiyasi prizmasidan o'rganilganda, uning aksiologik tabiati yaqqolroq aks etadi. Bu kontekstda tolerantlik mazkur kategoriyalar o'rtasidagi ziddiyatlarni neytrallashtirish strategiyasi sifatida

interpretatsiya qilinadi. Olimning ta'kidlashicha, bu tolerantlikning, siyosiy to'g'rilik kabi, ijtimoiy xulq-atvorni regulatsiya qiluvchi normalar va qadriyatlar tizimining ajralmas komponentiga aylanganligini ko'rsatadi [Панин 2004: 12].

Ilmiy yondashuv asosida siyosiy to'g'rilik til kodi va xulq-atvor me'yorlarini transformatsiya qilish orqali diskriminatsiyaning oldini olishga yo'naltirilgan ijtimoiy-lingvistik fenomen sifatida talqin etiladi. Tahliliy ma'lumotlarga ko'ra, bu hodisa ingliz til makonida, xususan, AQShda intensiv rivojlanayotgani alohida ta'kidlanadi, chunki bu yerda madaniyatlar va millatlar xilma-xilligi kommunikatsiyaning tolerant me'yorlarini implementatsiya qilish zaruriyatini keltirib chiqaradi [Панин 2004: 9].

V. V. Panin tomonidan ishlab chiqilgan tadqiqot metodologiyasi diskriminatsiya elementlarini bartaraf etish uchun qo'llaniladigan til birliklarining kompleks tahlilini o'z ichiga oladi. Xususan, ingliz tilida diskriminatsion leksikani neytrallashtirish tendensiyasi kuzatilmoqda: Negro o'rniga African-American, stewardess o'rniga flight attendant kabi terminlar qo'llanilmoqda. Bu o'zgarishlar tolerantlik prinsiplari ta'sirida yuz berayotgan lingvistik adaptatsiya jarayonlarini yaqqol aks ettiradi [Панин 2004: 12].

N. A. Krasilnikovaning ilmiy izlanishlari "O'ZINIKI — BEGONA" oppozitsiyasini tolerantlik konseptualizatsiyasining asosiy madaniy-siyosiy kategoriyasi sifatida o'rganishga bag'ishlangan bo'lib, olima ushbu bipolyar kategorianing ekologik diskursdagi metaforik modellashtirish xususiyatlarini tadqiq etadi. Uning ko'rsatishicha, "O'ZINIKI" va "BEGONA" kategoriyalari dual funksiya bajaradi: bir tomondan, ular lingvomadaniyat qadriyatlari va me'yorlarini aks ettirsa, boshqa tomondan, o'zgachalikni qabul qilish strategiyalarini belgilab, tolerant interaksiya mexanizmlarini tashkil etadi [Красильникова 2005: 5].

Tadqiqotda tolerantlikni konseptualizatsiya qilishda metaforik modellashtirish metodlarining ahamiyati alohida ta'kidlanadi. Olimning tadqiqotlari "yo'l" yoki "organizm" kabi metaforalar, ko'pincha, jamiyat integratsiyasi va yaxlitligini aks ettirish vositasi sifatida qo'llanilishini ko'rsatadi. Bunday metaforik konstruksiyalar "O'ZINIKI" kategoriyasiga mansublik hissini kuchaytirish bilan bir qatorda, "BEGONA"larni qabul qilish jarayonidagi psixologik to'siqlarni kamaytirish funksiyasini ham bajaradi [Красильникова 2005: 6].

N. A. Krasilnikova zamonaviy siyosiy va ekologik diskurslarda tolerantlik kategoriyasini o'rganishning ilmiy ahamiyatini alohida ta'kidlaydi. Uning tadqiqotlari asosida bu konseptni o'rganishning innovatsion tendensiyalari kognitiv-diskursiv paradigma doirasida shakllanayotgani aniqlangan. Olima tomonidan o'tkazilgan tahlil natijalariga ko'ra, "urush", "qurilish" va "kasallik" kabi kontseptual metaforalar yuqori chastotali ekanligini aniqlab, bu metaforalar AQSh, Rossiya va Buyuk Britaniyada ekologik muammolar va ijtimoiy o'zaro ta'sir masalalariga bo'lgan munosabatlarning o'ziga xos jihatlarini aks ettirishini ko'rsatadi [Красильникова 2005: 12].

Tadqiqot ma'lumotlariga ko'ra, Rossiya ekologik diskursida "axlatxona" yoki "kasallik" kabi negativ konnotatsiyaga ega metaforalar

ustunlik qilsa, ingliz tilli diskurslarda taraqqiyot va rivojlanish g'oyalari bilan assotsiatsiyalangan pozitiv va konstruktiv metaforalarni qo'llash tendensiyasi dominantlik qiladi [Красильникова 2005: 13].

M. S. Luntsovaning innovatsion yondashuviga ko'ra "gradiyent-konsept" tushunchasini tashkil etuvchi uch asosiy komponent — do'stlik, tinchlik va dushmanlik alohida tahlil obyektlariga aylanadi. Ushbu metodologik yondashuv konseptlararo munosabatlar va ularning emotsional-evaluativ xususiyatlarini tizimli o'rganishni maqsad qiladi. Olimaning ta'kidlashicha, mazkur komponentlarning har biri "o'ziniki — begona" kategoriyasi bilan bog'liq ijtimoiy identifikatsiya tizimining ajralmas elementi hisoblanadi. Gradiyent-konsept neytral pozitsiyadan (tinchlik) pozitiv (do'stlik) va negativ (dushmanlik) qutblarga gradual o'tishni ta'minlovchi kompleks struktura sifatida talqin qilinadi [Лунцова 2008: 6].

Ilmiy konsepsiyada tolerantlik "tinchlik" tushunchasi bilan bevosita bog'liq bo'lib, qarama-qarshi qutblar orasidagi muvozanatni saqlashga yo'naltirilgan holat sifatida namoyon bo'ladi. Shu tariqa, tolerantlik til vositalari yordamida ijtimoiy emotsiyalarni regulyatsiya qilishning noyob shakliga aylanadi [Лунцова 2008: 8].

M. S. Luntsova o'z tadqiqotida rus va ingliz tillari "do'stlik" va "dushmanlik" kabi kategoriyalarni ifodalashda muayyan o'xshashliklarni namoyon etsa-da, "tinchlik" va "tolerantlik" kabi oraliq konseptlarni tushunishda sezilarli farqlanishini asoslab beradi. Masalan, ingliz tilida tolerantlik "neytral do'stonalik" (neighbourliness) shakli sifatida konseptuallashtirilsa, rus tilida u, ko'pincha, "kelishuv" tushunchasi bilan assotsiatsiyalanadi [Лунцова 2008: 12].

Olima tolerantlikni idrok etishni formalashtiruvchi leksik-frazeologik birliklarni identifikatsiyalashda kognitiv-diskursiv yondashuvning metodologik samaradorligini ta'kidlaydi. Olimaning kuzatishlariga ko'ra, kompromiss va formal kelishuv mexanizmlariga yo'naltirilgan ingliz lingvomadaniyati tolerance konseptiga ko'proq tayanadi, rus madaniyati esa tolerantlikni, ko'pincha, do'stlikning emotsional chuqurligi bilan aloqador tarzda talqin qiladi [Лунцова 2008: 14].

I. A. Dolgova o'z tadqiqotlarida "sabr", "itoat", "chidam" va "tolerantlik" kabi konseptlarni birlashtiruvchi "sabr" konseptual maydonini o'zaro aloqador tushunchalar tizimi sifatida tavsiflab, ingliz va rus lingvomadaniyatlarida "sabr" konseptining markaziy ahamiyatga egaligini aniqlagan. Shu bilan birga, bu konseptning semantik belgilari har ikki madaniyatda sezilarli darajada farqlanishini qayd etadi. Jumladan, ingliz tilida sabr o'zini nazorat qilish, xotirjamlik va qiyinchiliklarni bartaraf etishga yo'naltirilgan aktiv harakatlar bilan bog'lansa, rus lingvomadaniyatida u ko'proq ma'naviy bardoshlilik va qat'iyat tushunchalari bilan uyg'unlashadi [Долгова 2006: 10–11].

Tilshunos rus tilidagi konseptning o'ziga xos xususiyati sifatida sabrning bo'ysunish va fidoyilik kabi yuksak ma'naviy qadriyatlar bilan bog'liqligini ko'rsatadi. Ingliz lingvomadaniyatida esa sabr, asosan, noqulay sharoitlarda belgilangan maqsadlarga erishishni ta'minlovchi pragmatik instrumental sifatida realizatsiyalanadi [Долгова 2006: 12].

I. A. Dolgovaning xulosalariga ko'ra, ingliz an'anasida tolerantlik individual huquqlar konsepti bilan bog'langan bo'lib, u o'zgachalikni qabul qilish qobiliyati sifatida interpretatsiya qilinsa, rus tilida bu tushuncha ko'pincha majburiy kompromiss yoki vaziyatga bo'ysunish zarurati sifatida talqin etiladi [Долгова 2006: 14].

Zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda "sabr" konseptini "azob" va "chidam" kabi boshqa mental kategoriyalar bilan integratsiyalashgan holda o'rganish tendensiyasi kuchayib borayotganini tadqiqotchi alohida qayd etadi. Qolaversa, olimlar turli lingvomadaniyatlarda sabr va tolerantlikni idrok etish xususiyatlarini chuqurroq anglashda paremiyalar va frazeologik birliklarning fundamental rol o'ynashini ta'kidlaydi [Долгова 2006: 16].

Y. S. Suminaning ilmiy ishlari tolerantlikni milliy til manzaralarida o'ziga xos konseptual mazmun kasb etuvchi fenomen sifatida sistematik tahlil qiladi. Tilshunos-olima tolerantlik konseptining universal xarakteri va dolzarbligini global kontekstda asoslab, buning dalili sifatida xalqaro forumlar va turli ilmiy sohalardagi tadqiqotlarda mazkur tushunchaning tobora muhim maqomga ega bo'layotganini ko'rsatadi. Tadqiqotchi rus lingvomadaniyatida tolerantlik tushunchasi "chidamlilik" konsepti bilan organik bog'lanib, spetsifik "semantik dublet" hosil qilishini ta'kidlaydi. Bu binar oppozitsiya tolerantlikning talqinidagi kontrastlarni yaqqol ifodalaydi: nemis madaniyatida boshqalarga nisbatan faol yo'naltirilgan munosabatdan tortib, rus madaniyatidagi nafaol qabul qilishgacha [Сумина 2007: 5].

Tadqiqot natijalari tolerantlikning kognitiv, axloqiy va lingvistik aspektlarni o'z ichiga olgan kompleks fenomen ekanligini ilmiy asosda isbotlaydi. Aynan shu ko'pqirrali tolerantlik konseptiga madaniyatlarning muloqotda "o'ziniki" va "begona" kategoriyalari o'rtasidagi farqlarni anglashda fundamental rol o'ynash imkonini beradi [Сумина 2007: 7].

Xulosa

Shunday qilib, ilmiy adabiyotlar tahlili tolerantlikning lingvistik kategoriya sifatida tilning turli sathlarida realizatsiyalanishini va har bir lingvomadaniyatning madaniy-spetsifik xususiyatlarini aks ettirishini ko'rsatadi. Lingvistik aspektda tolerantlik alohida semantik maydonni shakllantiradi. Jamiyatda tinchlik va barqarorlikni ta'minlash, shuningdek, insonlar o'rtasida o'zaro hurmat va tushunishni mustahkamlashga xizmat qiladigan mazkur tushuncha majburiy konformizm emas, balki ongli ravishda tanlangan madaniy-axloqiy qadriyat hisoblanadi. Bu tushuncha turli fikr va qarashlarni qabul qilishdagi ochiqlikni ifodalab, jamiyat taraqqiyotiga zamin yaratadi. Tolerant munosabat o'z pozitsiyasini saqlagan holda, boshqalarning huquq va erkinliklarini hurmat qilishni taqozo etadi. Tinchlikni ta'minlash, ijtimoiy birlikni mustahkamlash, inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish, innovatsion rivojlanishga hissa qo'shish va demokratik qadriyatlarni takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etuvchi bu konsept zamonaviy jamiyat rivoji uchun strategik ahamiyatga ega fundamental tushunchadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

- Petkova T.V. The Idea of Tolerance — John Locke and Immanuel Kant // Open Journal for Studies in Philosophy. — 2019. — 3(1). — P. 17-24.
- Tamer, G. (ed.) Key Concepts in Interreligious Discourses. The Concept of Tolerance and the Concept of Peace in Judaism, Christianity, and Islam. Salzburger Trilog. — 2017. — 176 p. // www.bafid.fau.eu
- Ахиджакова М.П., Донскова Л.А. Эмотивность и коммуникативная толерантность в структуре эмоциональности художественного текста // Гуманитарные и социальные науки. — 2021. — № 3. — С. 67–77.
- Долгова И.А. Концептуальное поле «терпение» в английской и русской лингвокультурах: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. — Волгоград, 2006. — 30 с.
- Донскова Л.А., Багироков Х. З. Психолингвистические основы коммуникативной толерантности языковой личности // Вестник Новосибирского государственного университета. Серия: Лингвистика и межкультурная коммуникация. — 2017. — № 1. — С. 34–38.
- Корнеева А.В. Коммуникативное поведение и коммуникативное сознание как механизмы межкультурного взаимодействия // Вестник Новосибирского государственного университета. Серия: Лингвистика и межкультурная коммуникация. — 2017. — Т. 15, № 4. — С. 77–84.
- Красильникова Н.А. Метафорическая репрезентация лингвокультурологической категории СВОИ-ЧУЖИЕ в экологическом дискурсе США, России и Англии: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. — Екатеринбург, 2005. — 24 с.
- Курбонова Х.Х. Национально-специфические особенности концепта «Сабр» (терпение) в таджикской и русской этнолингвокультурах // Автореферат диссертации на соискание учёной степени кандидата филологических наук. — Душанбе, 2021. — 24 с.
- Лунцова О.М. Градиент-концепт «дружба – мир – вражда» в русской и английской лингвокультурах: на материале лексики и фразеологии: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. — Волгоград, 2008. — 28 с.
- Марицина Г.И. Полевая структура концепта «Толерантность» в немецком, английском, русском и кабардино-черкесском языках // Филологические науки. Вопросы теории и практики. — 2016. — № 8 (62). — С. 129–131.
- Маруневич О.В. Концепт «иностранец»: лингвокогнитивный и аксиологический аспекты: на материале русского и английского языков: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. — Пятигорск, 2009. — 28 с.
- Панин В.В. Политическая корректность как культурно-поведенческая и языковая категория: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. — Тюмень, 2004. — 24 с.
- Синькевич Г.П. Значение национального языка в толерантном воспитании // Вестник Университета (Учредители: Государственный университет управления). — 2014. — № 5. — С. 262–265.

- Сумина Е.С. Толерантность: от феномена к лингвокультурному концепту: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. — Екатеринбург, 2007. — 21 с.
- Хлопова А.И. Содержание понятия «Toleranz» в немецкой лингвокультуре // Вестник Московского государственного лингвистического университета. Гуманитарные науки. — 2023. — Вып. 2(870). — С. 57–64.
- Чернов Л.И. Лингвокультурологическая трактовка понятия «межкультурная грамотность» // Материалы научных исследований. — 2020. — С. 63–74.

References

- Akhidzhakova, M. P., & Donskova, L. A. (2021). *Gumanitarnye i sotsial'nye nauki*, No. 3, pp. 69. (In Rus.)
- Chernov, L. I. (2020). *Materialy nauchnykh issledovaniy*, p. 65. (In Rus.)
- Dolgova, I. A. (2006). Kontseptual'noe pole "terpenie" v angliiskoi i russkoi lingvokul'turakh (Conceptual field "patience" in English and Russian linguocultures), extended abstract of candidate's thesis, Volgograd, pp. 10–11. (In Rus.)
- Donskova L.A. & Bagirokov Kh. Z. (2017). *Vestnik Novosibirskogo gosudarstvennogo universiteta. Seriya: Lingvistika i mezhkul'turnaya kommunikatsiya*, No. 1, pp. 23. (In Rus.)
- Khlopova, A. I. (2023). *Vestnik Moskovskogo gosudarstvennogo lingvisticheskogo universiteta. Gumanitarnye nauki*, No. 2(870), p. 58. (In Rus.)
- Korneeva, A. V. (2017). *Vestnik Novosibirskogo gosudarstvennogo universiteta. Seriya: Lingvistika i mezhkul'turnaya kommunikatsiya*, Vol. 15, No. 4, pp. 79. (In Rus.)
- Krasil'nikova, N. A. (2005). *Metaforicheskaya reprezentatsiya lingvokul'turologicheskoi kategorii SVOI-ChUZhIE v ekologicheskom diskurse SShA, Rossii i Anglii* (Metaphorical representation of the cultural-linguistic category OWN-ALIEN in ecological discourse of USA, Russia, and UK), extended abstract of candidate's thesis, Ekaterinburg, pp. 5. (In Rus.)
- Kurbonova, Kh. Kh. (2021). *Natsional'no-spetsificheskie osobennosti kontsepta "Sabr" (Terpenie) v tadzhikskoi i russkoi etnolingvokul'turakh* (National-specific features of the concept "Sabr" in Tajik and Russian ethnolinguocultures), extended abstract of candidate's thesis, Dushanbe, p. 7. (In Rus.)
- Luntsova, O. M. (2008). Gradient-kontsept "druzhba-mir-vrazhda" v russkoi i angliiskoi lingvokul'turakh: na materiale leksiki i frazeologii (Gradient concept "friendship-peace-enmity" in Russian and English linguocultures), extended abstract of candidate's thesis, Volgograd, (In Rus.)
- Marinina, G. I. (2016). *Filologicheskie nauki. Voprosy teorii i praktiki*, No. 8 (62), pp. 129–131. (In Rus.)
- Marunovich, O. V. (2009). *Kontsept inostranets: lingvokognitivnyi i aksiologicheskii aspekty: na materiale russkogo i angliiskogo yazykov*

- (Concept foreigner: cognitive and axiological aspects), extended abstract of candidate's thesis, Pyatigorsk, (In Rus.)
- Panin, V. V. (2004). *Politicheskaya korrektnost' kak kul'turno-povedencheskaya i yazykovaya kategoriya* (Political correctness as a cultural-behavioral and linguistic category), extended abstract of candidate's thesis, Tyumen, pp. 11. (In Rus.)
- Petkova, T. V. (2019). *Open Journal for Studies in Philosophy*, No. 3 (1), 19. (In Eng.)
- Sin'kevich, G. P. (2014). *Vestnik Universiteta*, No. 5, 263 p. (In Rus.)
- Sumina, E. S. (2007). *Tolerantnost': ot fenomena k lingvokul'turnomu kontseptu* (Tolerance: from phenomenon to linguocultural concept), extended abstract of candidate's thesis, Ekaterinburg, (In Rus.)
- Tamer, G. (ed.) (2017). Key Concepts in Interreligious Discourses. *The concept of tolerance and the concept of peace in Judaism, Christianity and Islam*, Salzburger Trilog, pp. 2–3. (In Eng.)